

**KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNI
MA'NAVIY-MA'RIFIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING
TEXNOLOGIYALARI**

*Navoiy davlat Pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat fakulteti
Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari
nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi II bosqich magistranti
Rasulova Sitara Saparovna
Ilmiy rahbar
Phd dotsent Musayev Otabek Qudratovich*

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada professional ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashning zamonaviy holati va muammolari, professional ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda virtual laboratoriyalarning o'rni va roli hamda professional ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash mazmuni, tuzilmasini ishlab chiqish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Kompetensiya, maqola, professional, ta'lim, ma'naviyat, mamalakat, pedagog, xususiyat.

**ТЕХНОЛОГИИ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К ДУХОВНО-
ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ
КОМПЕТЕНТНОГО ПОДХОДА**
*Навоийский государственный педагогический институт
Факультет физической культуры
Физическое воспитание и спортивная подготовка
Магистрант II ступени специальности «Теория и методология»
Расулова Ситора Сапаровна
Научный руководитель
Phd доцент Мусаев Отабек Кудратович*

Аннотация: В данной научной статье рассматриваются современное состояние и проблемы подготовки будущих специалистов в профессиональных образовательных учреждениях, роль и роль виртуальных лабораторий в подготовке специалистов к профессиональной деятельности

на основе компетентного подхода в профессиональном образовании, а также подготовка специалистов к профессиональной деятельности. деятельность на основе компетентного подхода в профессиональном образовании рассмотрено развитие содержания и структуры.

Ключевые слова: Компетенция, статья, профессионал, образование, духовность, страна, педагог, характеристика.

TECHNOLOGIES OF PREPARING STUDENTS FOR SPIRITUAL AND EDUCATIONAL ACTIVITY BASED ON THE COMPETENT APPROACH

Navoi State Pedagogical Institute

Faculty of physical culture

Physical education and sports training

II stage student of theory and methodology specialization

Rasulova Sitora Saparovna

Scientific supervisor

Phd associate professor Musayev Otabek Kudratovich

Abstract: In this scientific article, the modern state and problems of training future specialists in professional educational institutions, the role and role of virtual laboratories in preparing specialists for professional activity based on the competency approach in professional education, and the preparation of specialists for professional activity based on the competency approach in professional education the development of the content and structure was discussed.

Key words: Competence, article, professional, education, spirituality, country, pedagogue, characteristic.

Dunyo amaliyotida turli millatlar va xalqlarning aslar davomida shakllangan o'ziga xos milliy ma'naviyati hamda fazilatlaridan mamlakatni rivolantirishda samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratiladi.

Shu nuqtai nazardan ilg'or oliy ta'lim muassasalari tomonidan ma'naviy qadriyatlarning jamiyat hayotiga ta'sirini hisobga olgan holda o'quv mazmuniga tarixiy va ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish xususiyatlarini, boy madaniy me'ros va an'analarni singdirilishi pedagoglar tayyorlash jarayonlari natijadorligini ta'minlashning muhim omillari sifatida qabul qilingan. Jahonda ta'lim jarayonini

tubdan o'zgartirish va rivojlantirishning ilmiy asoslangan tizimini yaratish dolzarbligicha qolmoqda. Xususan, ijtimoiy sohani rivoltantirish va bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga innovatsion tayyorlashni takomillashtirish, ta'lim-tarbiya samaradorligiga yo'naltirilgan ilg'or pedagogik yondashuvlar va tenologiyalarga oid tadqiqotlar Princeton University (AQSH), Manchesters University (Angliya), National Advice on Pedagogical Technology (Angliya), Belfield Pedagogical University (Germaniya), Ta'lim texnologiyalari innovatsion axborot-metodik markazi (Rossiya) va Seoul Cyber University (Janubiy Koreya) kabi nufuzli ilmiy tadqiqot ta'lim markazlarida olib borilmoqda va salmoqli amaliy natijalarga erishilmoqda.

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini rivojlantirish va ta'lim sifatini yaxshilash, bunda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlarini inobatga olish, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar talabalarni ma'naviy-marify faoliyatga innovatsion yo'naltirish, sifatli ta'limga yo'naltirilgan motivatsiyasini faollashtirish imkoniyatlari kengaytirmoqda. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini

2030-yilgacha rivoltantirish konsepsiyasida "oliy ta'limda ma'naviy-axloqiy mazmuni kuchaytirish, innovatsion faoliyat, tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish, xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish" kabi vazifalar belgilangan. Bu borada oliy ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning innovatsion texnologiyalarini aniqlashtirish, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat jarayoni uchun axborot-metodik ta'minotni ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son, 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish

konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5847-son Farmonlari, 2017-yil 27-iyuldagi «Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3151-son, 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son, 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4307-son, 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivolantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4623-son Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida ushbu muammoga bag'ishlangan bir qator ilmiy - tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Faylasuf va sotsiolog olimlardan S.Shermuxeimedov, N.Komilov, M.Imomnazarov, Q. Nazarov, J. Tulenov, A.Begmatov, M.Bekmurodov, I. Karimov, A.Umarov, N. Jo'rayev, T.Mahmudov, E. Yusupov va boshqalar inson kamolotining ma'naviy asos ari, milliy g'oya va mafkura, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy mentalitet, millat sha'ni, axloq, mustaqillik va ma'naviyat kabi masalalarni atroflicha tadqiq qilganlar. Ma'rifatparvarlar I.Gaspirinskiy, M.Bexbudiy, S.Alizoda, A.Avloniy, I.Ibrat, A. Shakuriy, A. Fitrat va boshqalarning ta'lim tarbiyaviy g'oyalari ta'lim tizimida amalga oshiriladigan ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning mazmunini takomillashtirishga asos bo'ladi. Tarbiyaviy ishlarning ilmiy-nazariy va metodik asoslari mamlakatimiz pedagog olimlari tomonidan tadqiq etilgan.

Xususan shaxs ma'naviy-axloqiy madaniyati va uni shakllantirishning pedagogik xususiyatlari O.Musurmonova, yoshlarni ma'naviy tarbiyalashda oila va milliy qadriyatlarni ahamiyati M.Inomova, uyg'onish davri, Sharq allomalari ijodida komil inson tarbiyasi masalasi S.Nishonova, yuqori sinf o'quvchilarida axloqiy-madaniyat va uni tarbiyalash U.Maxkamov, o'qituvchi odobi

M.Ochilovlarning tadqiqotlarida yoritilgan. Respublikamizda pedagogika sohasida amalga oshirilgan ilmiy ishlarda oliy ta'lim muassasalari ishlarining turli qirralari R.Mavlonova, O.Xasanboyeva, V.A.Slastenin, U.N.Nishonaliyev, A.R.Xodjaboyev, N.V.Kuzmina, Y.K. Vasilyev, N.SH.Shodiyev, X. I. Ibragimov, A. Choriyev, M.H.Maxmudov, I. Valixo jayeva, P. Yusupova, O.Jamoliddinova, G.Qosimova, R.Safarova, A.Bekmurodov, M.Xaydarov, B.H.O'razov, X.Nazarova va boshqa olimlar tomonidan organilgan. Biroq shu paytgacha oliy ta'limda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga innovatsion tayyorlash yaxlit ilmiy ish sifatida yetarlicha o'rganilmagan.

Yuqorida qayd etib o'tilgan ishlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni shakllantirish, milliy ma'naviy muhitni yaratish va mustahkamlash jamiyatning ma'naviy sog'lom turmush tarzini ta'minlash, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida amalga oshiriladigan ma'naviy-ma'rifiy faoliyatlarni kuchaytirish lozimligini taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, biz tadqiqot ishimizni «Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion texnologiyalari» mavzusini dolzarb pedagogik muammo sifatida tadqiq etishimiz uchun asos bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistning Taraqqiyot O'zbekiston Strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni².
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son asosida O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'lim Tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi³. Barakayevich, Q. S., & Baxtiyorovna, A. S. (2021).
3. Xalqaro dastur talabalari asosida innovatsion ta'lim muhitini yaratish.4.5.Integration of science, education and practice. scientific-methodical journal, 1(02), 132-137 Татур Ю. Г.
4. Компетентностный подход в описании результатов и проектировании стан-дартов высшего профессионального образования. М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004 Lebedev O.E.

5. Upravleniye obrazovatebnimi sistemami. Uchebno - metodicheskoye posobiye dlya vuzov. - M.: Literaturnoye agentstvo «Universitetskaya kniga», 2004. - 136 s.77